

TADBIRKOR TOMONIDAN “CHUQURQISHLOQ” MAHALLASIDAGI 1 KM YO’L ASFALT QILIB BERILDI

Joriy yilda Toshloq tumanida ichki yo’llarni asfaltlash ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Prezidentimizning 408-qaroriga asosan, shu kunga qadar ko’plab mahallalarda ichki yo’llar asfaltlanib, aholiga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda.

Shuningdek, kuni-kecha 2-sektor rahbari tashabbusi hamda tadbirkor Abdullajon Qurbanov homiyligi bilan “Chuqurqishloq” MFYdagi Zarkon ko’chasingin yo’l qismi to’liq ta’mirlab berildi.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida bajarilayotgan asfaltlash ishlariga tadbirkor tomonidan 90 million so’m mablag’ ajratildi hamda ta’mirlash ishlari sifatli olib borildi.

Xozirda ushbu ko’cha yo’llari tekis va ravon xolatga keltirildi. Homiy tomonidan amalga oshirilgan hayrli ishlardan aholi minnatdor bo’lmoqda.

2023-05-27 08:21:00